



ACADEMIC SPECTRUM

3-Son (2026-yil, Mart)

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

BUXORO - 2026



ACADEMIC SPECTRUM

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

№3-Son (2026-yil, Mart)

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy
komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi
№1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan**

BOSH MUHARRIR:

Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A‘ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor
Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va
texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim
instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Eko Sri Margianti - Gunadarma universtiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor (Indoneziya).

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
ta‘limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O‘quv-uslubiy faoliyatni
takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini mudiri).

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li - psixologiya fanlari doktori (DSc), (Buxoro
davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Ganjiyev Feruz Furqatovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), (Buxoro
davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Ismatova Dilafuz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
kafedrasini dotsenti).

Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Mas‘ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahan Oybek o‘g‘li – Buxoro davlat universiteti
Psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi



EDITOR-IN-CHIEF:

Akhmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li

Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Kuleshov Valery Vladimirovich — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

Andrienko Elena Vasilyevna — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

Romm Tatyana Aleksandrovna — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

Eko Sri Margianti — Rector of Gunadarma University, Doctor of Economic Sciences, Professor (Indonesia).

Zarirov Lochin Rustamovich — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improving Educational and Methodological Activities).

Nazarov Akmal Mardonovich — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Psychology, Bukhara State University.

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

Ganjiyev Feruz Furqatovich — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

Mukhlisov Sodiqjon Saidjonovich — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Department of Information Systems and Digital Technologies, Bukhara State University.

Tilavov Mukhtor Hasan o‘g‘li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

EXECUTIVE SECRETARY:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Ахмадов Назирджон Рахмат угли
доктор философии по психологии (PhD), доцент.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

Кулешов Валерий Владимирович — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

Андриенко Елена Васильевна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационного и технологического образования, г. Новосибирск, Россия).

Ромм Татьяна Александровна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарного и социального образования, г. Новосибирск, Россия).

Еко Sri Margianti — ректор Университета Гунадарма, доктор экономических наук, профессор (Индонезия).

Зариров Лочин Рустамович — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления по совершенствованию учебно-методической деятельности).

Назаров Акмал Мардонович — доктор психологических наук (DSc), профессор, заведующий кафедрой «Психология» Бухарского государственного университета.

Рустамов Шавкат Шухрат угли — доктор психологических наук (DSc), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Ганджиев Феруз Фуркатович — доктор психологических наук (DSc), доцент кафедры психологии Бухарского государственного университета

Исматова Дилафруз Туймуратовна — доктор философии по психологии (PhD), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Мухлисов Содикжон Саиджонович — доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент кафедры «Информационные системы и цифровые технологии» Бухарского государственного университета.

Тилавов Мухтор Хасан угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:

Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Yoqubov Sodiqjon Latif o‘g‘li
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

QARLUQ TIL BIRLIKLARI LEKSIKASINING LUG‘AT FONDI VA LUG‘AT TARKIBI

Annotatsiya: Mazkur maqolada qarluq shevalarining leksik tarkibi hamda lug‘at fondining shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqotda O‘zbekiston hududida tarqalgan qarluq shevalarining leksik xususiyatlari, ularning tarixiy, etnik va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi o‘rganilgan. Shuningdek, qarluq shevalari lug‘at tarkibining umumturkiy so‘zlar, shuningdek, fors-tojik, arab, rus va boshqa tillardan o‘zlashgan leksik birliklar hisobiga boyib borishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qarluq shevalari o‘zbek tilining lug‘at boyligini shakllantirishda muhim o‘rin tutishi hamda o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim manbalardan biri ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: qarluq shevalari, leksik qatlam, lug‘at fondi, o‘zbek shevalari, dialektologiya, o‘zlashma so‘zlar.

ЛЕКСИЧЕСКИЙ ФОНД И СЛОВАРНЫЙ СОСТАВ КАРЛУКСКИХ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ

Аннотация: В данной статье рассматриваются лексический состав и формирование словарного фонда карлукских говоров. В исследовании анализируются лексические особенности карлукских говоров, распространённых на территории Узбекистана, а также их связь с историческими, этническими и социальными факторами. Отмечается, что лексический состав карлукских говоров включает общетюркские слова, а также заимствования из персидско-таджикского, арабского, русского и других языков. Результаты исследования показывают, что карлукские говоры играют важную роль в формировании лексического богатства узбекского языка и являются важным источником изучения его исторического развития.

Ключевые слова: карлукские говоры, лексический состав, словарный фонд, диалектология, узбекские говоры, заимствованная лексика.

VOCABULARY FUND AND LEXICAL COMPOSITION OF KARLUK LINGUISTIC UNITS

Abstract: This article analyzes the lexical composition and the formation of the vocabulary fund of Karluk dialects. The study examines the lexical features of Karluk dialects spoken in the territory of Uzbekistan and their relationship with historical, ethnic, and social factors. It is emphasized that the lexical structure of Karluk dialects consists of common Turkic words as well as borrowings from Persian-Tajik, Arabic, Russian and other languages. The results of the research indicate that Karluk dialects play an important role in shaping the lexical richness of the Uzbek language and serve as an important source for studying its historical development.

Keywords: Karluk dialects, lexical composition, vocabulary fund, dialectology, Uzbek dialects, borrowed words.

Kirish

O‘zbek tili asrlar osha rivojlanib, taraqqiy etib kelgan. Tilimiz yillar davomida sayqal topib, silliqanib, mukammalashib, xalq tilidan oziqlanib, uning zaminida boyigan, o‘zining lug‘at fondi va lug‘at tarkibiga ega bo‘lgan.

E.Begmatov ta’kidlaganlaridek, tilning asosiy lug‘at fondi o‘z mohiyatiga ko‘ra uzoq tarixiy davrlar mahsuli, aniqrog‘i tilda uzoq davrlardan beri uzluksiz qo‘llanib kelayotgan so‘zlar sistemasi, zanjiridir. Darhaqiqat, „Necha ming yillardan beri tilda voqealanib kelayotgan o‘shish-o‘zgarishdan iborat muntazam harakat til tirikligini ta’minlaydigan, uning uzun umriga tirgak tutadigan va shu tariqa uning sohibi bo‘lgan qavmning yugurik zamon va yumaloq makondagi qadru qimmatini salomat saqlaydigan bemisl bir qudratdir. Shuning uchun ham tiriklik rutbasidagi til hech qachon

tamoman qotib qolgan sokin holatda emas, balki hamisha harakat otlig‘ hayot ichida bo‘ladi, ana shu harakat uni zamonlardan zamonlarga to‘rt ko‘z tugal olib o‘tadi”.

O‘zbek tilining rivojlanishi, taraqqiy etishida o‘zbek shevalarining, jumladan, Qarluq o‘zbek shevasining juda katta o‘rni bor, albatta. Qarluq shevalari bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra, Qarluq shevalari o‘zining leksik tarkibi va o‘ziga xos leksik xususiyatlari bilan boshqa sheva so‘zlardan farqlanadi. Buni tadqiqot davomida Qarluq til birliklari bo‘yicha to‘plangan dialektal faktik materiallarning tahlili ham izohlaydi. Sh.Shabdurahmonov ta‘kidlaganlaridek, shevalar leksik boyligining asosiy qismi ularning shevalararo turli fonetik variantlarini hisobga olmaganda, o‘zbek umumxalq tili, shuningdek, adabiy tilning leksik boyligiga mos keladi. Biroq, o‘zbek shevalarida shunday so‘zlar ham uchraydiki, ularning bir qismini adabiy tilda yoki boshqa shevalarda paralleli yo‘q bo‘lib, bir qismining esa boshqa so‘z bilan ifodalanadigan variantlari mavjuddir. Shevalarning bunday o‘ziga xos xususiyatlari har bir hudud shevalarida uchraydi.

Adabiyotlar tahlili

Tadqiq etilayotgan mazkur dialekt o‘zbek shevalarining o‘ziga xos leksikasi bilan hududlarda Samarqand, Buxoro, Navoiy, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Namangan kabi qadimiy shaharlarda yashayotgan aholining etnik tarkibi bilan bog‘liqligi, yuqorida ta‘kidlanganidek, mazkur hududlar qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalarining o‘zaro muloqot hududi ekanligi, va Bu hududlarda Qarluq shevasi yetkachilik qilayotganligi, shuningdek, Samarqand, Buxoroda mavjud tradision ikki tillilik, o‘zbek-tojik tillarining saqlanib kelinayotganligidadir. M.Mirzayev ta‘kidlaganlaridek, ikki tillilik – bu ikkita mustaqil tilni (o‘z ona tilini va boshqa ikkinchi bir tilni) bilish demakdir. Shuning uchun ikki tillilik o‘z mohiyatiga ko‘ra ikki tomonlama proses bo‘lib hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi ikki qardosh xalq o‘zbek va tojik xalqlarining tili o‘rtasidagi bu munosabat oqibat natijada mazkur tillardan har birining lug‘at sostavi xarakterini belgilab berdi. Samarqand va Buxoro shevalarida ikki tillilik mavjud bo‘lsada, mazkur hududlarda Qarluq lahjasida so‘zlashadigan aholi ko‘pchilikni tashkil etadi. Buxoro shevalarida asosan qarluq lahjasida so‘zlashadiganlar ko‘p bo‘lsa, qipchoq shevalarini tasnif qilgan X.Doniyorovning ta‘kidlashlaricha, „Samarqand shahrini qipchoq dialektlarini klassifikatsiya qilish, tiplarga bo‘lishning markaziy nuqtasi qilib belgilash mumkin”. X.Doniyorov tasnifiga ko‘ra tadqiq etilayotgan hududlardan Samarqand, Bulung‘ur, Jomboy, Nurota shevalarini qipchoq shevalarining sharqiy gruppasiga; Buxoro, Navoiy, Qiziltepa, Pasdorg‘am, Kattaqo‘rg‘on, Narpay, Paxtachi, Xatirchi, Ishtixon, Nurota-Jo‘sh shevalari qipchoq shevalarining g‘arbiy guruhiga kiritilgan. Tadqiqotda bu tasnifga tayanildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ma‘lumki, umumxalq tilini tadqiq qilish uchun avvalombor, shu tilda so‘zlashuvchi xalqning tarixini o‘rganish lozim bo‘ladi. Chunki tilning taraqqiy etishi xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, fan va texnika yutuqlari, xalq xo‘jaligining yangi sohalarini aks ettiruvchi yangi so‘z, terminlarning yuzaga kelishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Tadqiqot ob‘yekti bo‘lgan Qarluq shevasi hukmron hududlar o‘zining qadimiy - tarixiy yodgorliklariga, boy madaniy merosiga ega bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Karmana, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Qo‘qon, Namangan kabi qadimiy shaharlari bor. Mazkur hududlarning Qarluq shevalari bo‘yicha yuzaga kelgan tadqiqotlarda ushbu tarixiy shaharlar to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan. Haqiqatdan ham, bu shaharlar asrlar mobaynida o‘lkamizning yirik ma‘rifat va madaniyat o‘choqlaridan bo‘lgan. Bu yerlarda buyuk allomalar, olimu fuzalolar shayxu-avliyolar yashab o‘tgan. Ushbu hududlarda joylashgan qadimiy shaharlar Markaziy Osiyoning Shosh, Nasaf, Balx shaharlari eng qadimiy o‘lklar qatoridan joy olgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, ko‘hna So‘g‘d madaniyatiga mansub qishloqlar avval Samarqand atroflarida yuzaga kelib, so‘ngra asta-sekin Zarafshon daryosi bo‘ylab yoyilganligi, u yerlarda milodgacha bo‘lgan VI-V asrlarda dehqonchilik qishloqlari qad ko‘targanligi ta‘kidlanadi. O‘zbekiston hududida istiqomat qilib kelayotgan aholining avlod ajdodlari turkiy va turkiylashgan ko‘chmanchi urug‘ va qabila vakillari qo‘shilgan bu hududlarda qadimdan yashab kelgan. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, O‘zbekiston hududida o‘zbeklarning qo‘ng‘irot, kenagas, mang‘it, toma, qipchoq (tor ma‘noda), meton (muytan), burqut, xitoy (qırtay), xo‘ja, bahrin, qora mang‘itlar, qalmoq, misit, said, bek, eshon, qutchi, qirg‘iz, esaru, qaraqalpoq, esavoy, galavur, mo‘g‘ul,

g‘ubombor, movri, qoracha, g‘ulon, maxsim, jaloir, nayman, arg‘un, turkman, kapa, taxchi, g‘ulom, aymoq, eroni, qarluq, kal, qozoq, qalmoq kabi ko‘pgina urug‘ va qabila nomlari saqlangan. Ma‘lumki, barcha turkiy tillar qarluq, o‘g‘uz, qipchoq tillari asosida guruhlanadi. O‘zbek tili lug‘at tarkibining boy ekanligi ham uning bu lahjalar bilan uzviy aloqada bo‘lganligidadir. Turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbeklar etnik tarixini o‘rganishda o‘rta asr mualliflaridan Mahmud Koshg‘ariyning „Devonu lug‘otit turk“ asarining alohida o‘rni bor. Mahmud Koshg‘ariy xalq tilini hududiy o‘rganish orqali shunday xulosaga keladi. „Har bir qabilaning sanoqsiz allaqancha urug‘lari bor, men bulardan asosini yozdim, shaxobchalarni tashladim“. Bu turkiy tillarning juda ko‘plab urug‘-qabila til birliklaridan tashkil topganligini isbotlovchi dalillardir.

Tahlillar va natijalar

Shuni alohida aytish lozimki, Alisher Navoiy ham ko‘pgina tillarni, xususan, o‘z turkiy (o‘zbek) tili va uning sheva, lahjalarini mukammal bilgan. Shu bois ham Navoiy bu haqda „Har bir jamoaning tillari o‘zgaridan, har bir guruhning so‘zlashuvlari yana birlaridan o‘zgacha va bir necha xususiyatlar bilan farqlidirki, bu ayirma o‘zgalarda yo‘qdir“ – deb ta‘kidlaydi.

O‘zbek tilida so‘zlashuvchi aholining o‘tmishda turkiy va turkiy bo‘lmagan etnik guruhlar bilan yaqin munosabatda bo‘lishi o‘zbek shevalarining lug‘at tarkibini boyishiga olib keldi. Ammo o‘zbek tili, o‘zbek shevalari, jumladan, tadqiqotimiz ob‘yekti bo‘lgan O‘zbekiston hududi qarluq shevalari leksik qatlamida umumturkiy leksemalar o‘zlashtirilgan so‘z-larga nisbatan ko‘pchilikni tashkil qiladi. Mazkur hudud shevalari lug‘at tarkibida fors-tojik, arab, rus tili va u orqali G‘arbiy Yevropa til-laridan o‘tgan o‘zlashgan so‘zlar ham anchagina.

Tadqiqotimiz ob‘yekti bo‘lgan O‘zbekiston hududi shevalar shevalarining o‘ziga xos tomonlari mavjud. „Mazkur shevalardagi o‘xshash va farqli tomonlar shevalar tarqalgan hududning joylashuv o‘rni, ma‘lum tarixiy sharoitlari, asrlar davomida qardosh va qardosh bo‘lmagan xalqlar bilan aloqada bo‘lganligi, sheva guruhi vakillarining kasbi-kori, mashg‘uloti kabi qator omillar bilan bog‘liqdir. Bu ko‘proq tilning leksik qatlamida o‘z ifodasini topadi. Chunki, bugungi o‘zbek shevalarining leksikasi uning boshqa bo‘limlari (morfologiya, sintaksis, fonetika)ga nisbatan o‘zbek xalqining tarixini, uning hayot yo‘lini, boshqa xalqlar bilan madaniy-iqtisodiy aloqalarini uning tabiatga munosabati, ishlab chiqarish usullari, umuman, o‘zbek xalqi faoliyati tarixini o‘zida yaxshi aks ettirgan. Shu ma‘noda har bir so‘z tarixidir. O‘zbek shevasining har bir so‘zida o‘sha shevada so‘zlashuvchi xalq tarixining bir kichik mazmuni mujassam“. Til leksik qatlamining boyishida ichki va tashqi omillarning ta‘siri bo‘lgan, albatta. Darvoqye, tillarda „o‘z“ va „o‘zlashgan“ so‘zlarning mavjudligi tildagi „ichki“ taraqqiyotni, shuningdek, „tashqi“ ta‘sirlarning natijalarini ko‘rsatib turadi. Shu sababli tildagi muhim o‘zgarishlar „ichki“, „tashqi“ omillar, lisoniy qonuniyatlar hosilasidir. Boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tilida bo‘lmagan biror yangi predmet, yangi voqyelikni ifodalash ehtiyojidan kelib chiqadi. Shu bois ham o‘zbek adabiy tili tarixiy taraqqiyoti davomida boshqa tillardan ko‘pgina so‘zlarni qabul qilgan.

Xulosa

Tilning lug‘at tarkibi etimologik jihatdan tahlil qilinganda, avvalo, o‘zbek tilining o‘ziniki bo‘lgan so‘zlar, so‘ng boshqa tillardan o‘zlashgan leksik qatlam o‘rganiladi. Shevalardagi leksik qatlam o‘rganilganda ham xuddi shunday nazariyaga asoslanadi.

Umuman olganda, qarluq shevalari o‘zbek tilining lug‘at boyligini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi hamda o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotini, uning boshqa tillar bilan aloqalarini va til taraqqiyotidagi ichki hamda tashqi omillarni o‘rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Shu sababli qarluq shevalarining leksik qatlamini areal, tarixiy va etnolisoniy jihatdan chuqur o‘rganish o‘zbek dialektologiyasi va turkiy tilshunoslik uchun dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1985.
2. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975.
3. Mirzayev M. O‘zbek tili dialektologiyasi. – Toshkent: Fan, 1969.
4. Doniyorov X. O‘zbek xalq shevalari. – Toshkent: Fan, 1977.
5. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent: Fan, 1960.



6. Navoiy A. Muhokamat ul-lug‘atayn. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1983.
7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: Universitet, 2000.

MUNDARIJA:

T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Bet
1	<i>AXMADOV NAZIRJON RAHMAT O'G'LI</i>	THE ROLE OF SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS IN SHAPING POSITIVE BEHAVIOR AMONG ADOLESCENTS	6
2	<i>SHAROPOVA MADINA OBID QIZI</i>	RAQAMLI QARAMLIK (SMARTFON, IJTIMOYIY TARMOQLAR) STRESSI VA IMMUNITET PASAYISHI	10
3	<i>SHAROPOVA ZARNIGOR OBID QIZI</i>		14
4	<i>RAJABOV RASULBEK SOBIR O'G'LI</i>	O'ZBEK OILASIDA MEHR, HURMAT VA MAS'ULIYAT KABI PSIXOLOGIK OMILLAR IJTIMOYIY BARQARORLIKNING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI	18
5	<i>MA'RUFJONOVA MARJONAXON ALISHER QIZI</i>	EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF NATIONAL RELIGIOUS VALUES IN TEACHING ENGLISH TO DIFFERENT AGE GROUPS	21
6	<i>BAHRONOVA IRODA OTABEK QIZI</i>	BOLALAR NUTQINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOYIY OMILLAR	24
7	<i>YOQUBOVA MAFTUNA SHOYIM QIZI</i>	BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARIDA DEONTOLOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	27
8	<i>RO'ZIQULOVA UMIDA AKBAR QIZI, TUROBOVA ZIYODA SHUHRAT QIZI</i>	MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI HAMDA OTA-ONALAR MUNOSABATI ORASIDAGI NIZO VA YECHIMLAR	31
9	<i>JUMAYEV NODIR ZAYNITDINOVICH</i>	O'SMIRLARDA INTELLEKTUAL QOBILIYATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK JIHATLARI	51
10	<i>HAMROYEV TEMURBEK JAMSHID O'G'LI</i>	CHET ELGA MEHNAT MIGRATSIYASI KETGAN OTA-ONALARNING FARZANDLARIDA IJTIMOYIY MOSLASHUV JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.	61
11	<i>JALILOV JAVOHIR JAMSHID O'G'LI</i>	O'QUVCHILARDA KASB MOTIVATSIYASINING SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OMILLARI	66

T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Bet
12	<i>SHAROPOV SUXROB SHODI O'G'LI</i>	O'SMIRLIK DAVRIDA REFLEKSIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING METAKOGNITIV MEXANIZMLARI	69
13	<i>YOQUBOV SODIQJON LATIF O'G'LI</i>	QARLUQ TIL BIRLIKLARI LEKSIKASINING LUG'AT FONDI VA LUG'AT TARKIBI	73
14	<i>OLIMOV LAZIZ YARASHOVICH</i>	SUD-PSIXOLOG EKSPERTI KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI	77
15	<i>RAJABOV ELSHOD ERKINOVICH</i>	‘ILTIFOT’ NUTQIY AKTINING BADIY MATNDA VOQELANISHINING FREYM MODEL T AHLILI	83
16	<i>NAZAROV ‘KMAL MARDONOVICH</i>	YOSHLAR PSIXOLOGIYASI VA MA‘NAVIY TARBIYA: INNOVATSION JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHDA MA‘NAVIY QOBILIYATNI OSHIRISH YO‘LLARI	88
17	<i>RUST‘M‘V SH‘VK‘T SHUHR‘T ‘G‘LI</i>	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDAGI TA‘LIM TIZIMIDA TALABALARNING ILMIY VA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI	94
18	<i>DEHQONBOYEV SHOHJAHON OYBEK O'G'LI</i>	SUD PSIXOLOGIK EKSPERTIZASIDA STRESS HOLATLARINI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH	101
19	<i>AXMEDOVA ZARINA RAHMAT QIZI</i>	LOYIHAVIY YONDASHUV ORQALI KELAJAK O‘QITUVCHILARNI FASILITATORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	108
20	<i>AXMEDOVA ZARRINA JAMILOVNA</i>	TALABALARNING DUAL TA‘LIM TIZIMIGA MOSLASHUVINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	117
21	<i>GANJIYEV FERUZ FURQATOVICH</i>	AGRESSIV O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARNI YUZAGA KELISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI	122
22	<i>HAMROYEV JASUR UMEDOVICH</i>	THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE STUDY OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MODERN YOUTH	126
23	<i>SHAROPOV SUXROB SHODI O'G'LI</i>	O'SMIR VA TALABA YOSHLARIDA ICHKI MOTIVATSIYA VA REFLEKSIV TAFAKKUR O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	130



T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Bet
24	<i>HAFIZOV DIYORBEK ZARIF O'G'LI</i>	BOLALAR VA AYOLLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK, PEDOFILIYA VA ERTA NIKOH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA HUQUQIY MEXANIZMLAR	136
25	<i>ASHRAPOV NODIRBEK NAMOZ O'G'LI</i>	SPECIFIC PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SOCIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF THE COGNITIVE SYSTEM OF ADOLESCENTS	140
26	<i>MURODOVA MADINA ATAJON QIZI</i>	IJTIMOYIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH, UYQU SIFATI VA TALABA QIZLAR PSIXOLOGIK HOLATI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	143
27	<i>ABDUVORISOVA MAFTUNAXON ABDUVOXID QIZI</i>	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI	147



Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrda №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://aspec.uz>
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

“ACADEMIC SPECTRIUM” ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2026 № - 3-Son (2026-yil, Mart)